

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
21-NOYABR
N:47
(66848)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

KO'HNA VA NAVQIRON BUXORO!



Muxbir safardan qaytdi



Yurtimizning eng so'limgo'shalaridan bo'lgan Buxoro viloyatiga bunday ta'rif berilishining nechog'li o'rinni ekanligiga u erga qilgan safarimiz chog'ida yana bir bor amin bo'ldik.

An'anaga ko'ra, respublikamiz bo'ylab «Tong yulduzi» kunlarini o'tkazishni aynan shu viloyatdan boshlashimizning ham xosiyati bor, albatta. Zero, bu ko'hna zaminda ko'plab aziz-avliyolar, necha-necha buyuk allomalar mangu orom topgan. Ularning xotirasini yod etish, ziyyarat qilish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Osmon ostidagi muzeyga qiyoslanadigan Buxoroga kirib borganimizda bobo quyosh ufqdan endigina bosh ko'tarayotgandi.

Shaharga allanechuk mahobat baxsh etib turgan osmono'par minoralar uning zarrin nurlaridan jilolanib, yanada sirlilik kash etadi. Milliylik va zamonaliviylik uyg'unligidagi yangi yangi maktablar, litsey va kollejlar, musiqa va sport maktablari ham shahar ko'rkiga ko'rak qo'shib turibdi...

**BIRINCHI**

Bilasizmi, birinchi bor Yer aylanasi uzunligini kim hisoblagan? Albatta, Abu Rayhon Beruniy bobongizdir. Hindistondagi Nanda qo'rg'onida istiqomat qilgan va shu yerda Yer aylanasi uzunligini tog' perpendikulyari orqali o'lchash mumkinligini isbot etgan.


Bu juda katta bilimni talab etadi. Siz-chi? Siz ham fanda yangilik yaratib millatimiz nomini sharafga burkash haqida o'layapsizmi, yo'qmi?!

ABDULLA ANSORIY KIM BO'LGAN?

Bolalar!
Bu nomni tez-tez eshitib turasiz. Bu inson 1006-1088-yillarda yashagan. O'n to'rt yoshida sayohatga chiqib, Balx, Nishapur va boshqa shaharlarda yashagan. «Munnojot». «Ganjnoma», «Nasihatlar» kabi asarlarning muallifi. 6 ming baytdan ortiq she'r yozgan.

Uning bir to'rtligini e'tiboringizga havola etyapmiz.

Nafsingsni agar qilib nishon ketgaysan, O'zingni xarob etish tomon ketgaysan. Boq o'zingga: kimsan-u, qayderdan kelding? Angla: ne qilsansen-u, qayon ketgaysan?

BIZNING GALAKTIKA

Bizning Galaktika o'rama galaktikalar turiga oid bo'lib, Quyosh bilan birga taxminan 200 milliard yulduzni o'z ichiga oladi. Bu osmon jismlarining qanday kuchlar hisobiga harakatlanshi haqida haligacha maxsus ilmiy adabiyot ham, maxsus gipoteza ham yo'q. Demak, bir dononing «Men hali hech narsa bilmayman», degan gapida jon bor. Siz qanday fikr dasiz, o'quvchim?

SHAHNOZA tayyorladi

Qadrli bolalar! Biz Sizga ilgari Abu Rayhon Beruniy va Muso ibn Muhammad al-Xorazmiy singari buyuk olimlarimiz haqida hikoya qilgandik. Bugungi hikoyamiz yana bir mashhur yuridoshimiz Ahmad al-Farg'oniy haqida.

Biz bir guruh yoshlardan o'tgan asrning 80-yillarda Misrga sayohat qilgandik. Ko'hira, ulkan Piramidalar, Kleopatra va Tutanhamonning muzeysi dagi yodgorliklar bizni hayratga soldi. Mamlakatning qon tomiri sanalmish Nil daryosining sohillarida yurib, uning go'zalligidan bahramand bo'ldik. Lekin o'sha paytda bizga bu ulkan daryoning suv sathini belgilovchi uskunani 861-yilda yashagan hamyurtimiz Ahmad Farg'oniy yaratgani haqida ma'lumot berishmagan. Istiqlol tufayli shunday ulug' alloma yashab o'tg'anligi, olamshumul kashfiyotlar qilganligi, Bag'doddagi dunyoga mashhur «Bayt ul-hikma», ya'ni «Ma'mun akademiyasi»da ishlaganligini bilib oldik.

AHMAD**FARG'ONIY**

guruh olimlar ishlashgan.


Ahmad al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» bo'lib, u ko'p marotaba Yevropa tillariga tarjima qilingan. Bu kitob g'arbda «Alfraganus» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Hozirgi kunda Ahmad Farg'oniyning sakkizda asari ma'lum bo'lib, ularning barchasi astronomiyaga oiddir. Mazkur qo'lyozmalar Berlin, London, Mashhad, Parij, Rampur, Patna va Tehron kutubxonalarida saqlanmoqda. Istiqloqliga erishganimizdan so'ng O'zbekistonda uning ilmiy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Bir qator ko'chalarga, o'quv yurtiliga uning nomi berildi. Farg'onada uning ulkan haykali o'rnatildi. 1998-yilda mashhur allomaning tavalludiga 1200 yil to'lishi keng nishonlandi.

Davrlar o'tadi, mashhur allomalarining dunyo ilm-fani ravnaiqa muhim hissa bo'lib qo'shilgan ilmiy ishlari, ixtirolari, kitoblari va ibratli hayoti yorqin sahifa bo'lib qoladi.

Jabbor RAZZOQOV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

XATCHO'PINGIZ BORMI?

Yetti-sakkiz yoshlarni darsliklar bilan birga ertak kitoblar o'qib turardim. Buvim menga qog'ozdan chiroyli xatcho'plar yasab berardilar. Varaqlarni boklashni, tufuk bilan barmoqni ho'llab, kitob varaqlashni xush ko'rmsadilar. Kecha oynayi jahon orqali shu mavzuga oid lavhani ko'rib, xatcho'p yasab bergen buvim ko'z oldimga keldi. U kishi aytar edilar:

«Kitob – muqaddas. Unga ozor berish gunoh. Bu bir! Ikkinchidan, qo'lni labga tekka zib, kitob varaqlash soq'liqqa ziyon. Varaqni kublab qo'yish odobsizlik belgisi. Haqiqiy kitobxonda, albatta, xatcho'p bo'lishi kerak».

Qaysi kuni buvimdan qolgan eski kitobni ochsam, ichidan xatcho'p tushdi. Shu bahona yana bir voqeani esladim. Hozirgi bolalar kechasi ertak eshitish o'rniiga bo'lar-bo'lmas filmlar-u, teleseriallar ko'rib, voyaga yetishyapti. Zamona-da, dersiz? Sal shoshmang!

Ertaklarning ham turfa xili bo'igan. Lekin onam, bувимлар улардан балоларнинг тарбиясига мосларини со'злаб берганлар. Демак, биз ham балоларга о'з юшларига мос фильмларни томосха qilishga ruxsat berishimiz kerak. Endi масаланинг яна бир томони бор: nega hozirgi онлар ertak, dostonlarni kam biladilar? Bunga sabab nima? Vaholanki, бала тарбия qilayotgan onanining o'zi o'ta ma'naviyatlari bo'lishi kerak. Aksincha bo'lsa-chi? Unda o'zimizga qiyin.

Qaysi ota yoki ona har oyda farzandiga bitta kitob olib berayotgan bo'lsa, demak, ular bolasining kelajagiga битта олтн г'ишт qo'ymoqdalar. Bu oshirib aytildigan gap emas. Bo'ladigani shu. Dunyoning eng mashhur insonlari hayotiga boqing: ular bir ovozdan «Shu darajaga yetishimda kitob qo'lib keldi», deyishgan.

Kitob o'qigan bola fikrlay boshlaydi. Fikrladimi, demak, u nima ish qilayotganini yaxshi tushunadi. Fikri bor insonni aldash qiyin. Bunday bola Vatanni ardoqlashni ham biladi. Bunday bola ota-onasini boshiga ko'taradi. Shuni istaysizmi, bolangizga xatcho'p yasashni o'rgating: bu bilan uni odobli bo'lishga, sog'lig'ini, kitobni, Vatanni asrashga o'rgatasiz.

To 'Iqin HAYIT





Sizga havas qilaman!

«Tong yulduzi» tahririyatiga juda ko'plab mehmonlar tashrif buyurishadi. O'quvchilar bilan bir qatorda ustozlarning tashrifidan ham boshimiz ko'kka yetadi. Maktablarda o'tayotgan tadbirlar, yangiliklardan bizni boxabar qilish maqsadida kelgan ustozlarni jon qulog'imiz bilan tinglaymiz.

— deydi Dilbar opa bolalik yillarini xotirlab. — Bu gapimni eshitgan otam: «Qizim, sizga bir kasb aytay, siz bu kasbni egallab, ko'plab huquqshunoslar yetishtiring. Katta bo'lганingizda, o'qituvchi bo'ling», deganlari hanuz yodimda. Mana, oradan yillar o'tdi. O'yab ko'rsam, otamning orzusi menga bugun katta baxt hadya etayotgan ekan. O'quvchilarim, qadrondon maskanim hayotimning mazmuniga aylangan.

Bugungi kunda o'quvchilarga odobnoma fanidan saboq bermoqdam. O'quvchilarimning har

tomonlama yetuk, mukammal bo'lib kamol topishlari uchun ma'naviyat darslarida nafaqat yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar, balki dunyo yangiliklaridan ham xabardor qilib borishni vazifam deb bilaman.

— Aytib o'tganingizdek, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash ustozlardan katta mas'uliyat talab qiladi. Ayni damda mehnatlarining samarasidan ko'nglingiz to'lyaptimi?

— Bu yil pedagogik faoliyatimga yigirma yil to'ldi. Maktab partasida o'tirgan o'g'il-qizlarga boqib, beixtiyor o'quvchilik yillarimni xotirlayman. Bugungi kunda Yurtboshimizning yoshlarga qaratayotgan e'tiborlariga, yaratilayotgan imkoniyatlarga, zamonaliv, davr talabiga mos o'quv maskanlariga havasim keladi... O'quvchilarimga ta'limdan tashqari, odob-axloqdan saboq bergenim, tarixni chuchur o'rgatganim besamar ketmayapti. Negaki, ularning barchasi ko'z o'ngimda orzu qilganimdek har tomonlama mukammal bo'lib voyaga yetmoqdalar.

Dilbar opa bilan uzoq subbatlashdik. Opaning o'z kasbinining fidoyisi, o'quvchilarning sevimli ustozlari ekanligi gap-so'zlaridan sezilib turardi. Subbatimiz so'nggida opaning egzu maqsad yo'lidi mas'uliyatli ishlarida omad tilab, ustoz bilan xayrashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi



Dilbar SUVONOVA ko'p yillardan buyon gazetamizda o'z maqolalari bilan faol qatnashib keladilar. O'zlar faoliyat yuritayotgan Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 12-«Mehribonlik uyi» negizidagi umumta'lim maktabida direktor o'rinosari vazifasida ishlayotgan opa tahririyatimizga bir olam yangiliklar bilan tashrif buyuribdilar:

— Otam huquqshunos bo'lganlar. Ularga havas qilib: «Katta bo'lsam, huquqshunos bo'lam», deya orzu qillardim,

Bolalar maydonchalarida

Bola! Dunyodagi eng totli so'z. Bolalik esa inson umrining eng beg'ubor, betakror damlari sanaladi. Dunyodagi eng yaxshi narsalarni bolalarga ilinishim ham bejiz emas. Yurtimizning turli go'shalarida, mahallalarda, ko'p qavatlari uylar atrofida barpo etilayotgan «Bolalar maydonchalarini» fikrimiz dalili bo'la oladi. Andijon viloyatida Mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan qad rostlagan «Quyoncha» nomli maydoncha ulug'norlik bolajonlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 16-Davlat ixtisoslashgan umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Isfandiyor Burgutov maydonchada bolajonlar uchun yaratilgan sharoitlar haqida to'lqinlanib yozadi:

**ULUG'NORLIK
BOLAJONLAR
QUVONCHI**



— Maydonchaning ochilish marosini nafaqat bolajonlar, balki ularning ota-onalari uchun ham haqiqiy bayram bo'ldi. Chevar onaxonlarimiz maydonchada bolajonlarning o'ynashlarini uchun yumshoq o'yinchoqlar tikib berishdi. Unga biriktirilgan tarbiyachilar esa qiziqarli o'yinlar o'yab topib, bo'sh

vaqtning xush o'tishiga hissa qo'shishyapti. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faollari deyarli har kuni «Kunni mazmunli o'tkaz!» tadbirlarini tashkillashtirishyapti.

Yaqinda «Kamolot» va «Kamalak» tashkiloti faollari besh yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan bolalar orasida «Prezident farzandlari» ko'rik-tanlovini o'tkazishdi.

«Quyoncha»da bunday tadbirlar deyarli har kuni tashkillashtiriladi. Maydonchada yangrayotgan bolajonlarning sho'x-shodon ovozlari sadosi kayfiyatimizni ko'tarib yuboradi va beixtiyor bolalik damlarimizni yodga soladi...

Quynoq bolalik damlari «Quyoncha» kabi maydonchalarda quvnoq o'tayotgan jajjalarga havas qilsa arzyidi.

O'z muxbirimiz

KONSTITUTSIYA BAYRAMIGA SOVG'AM

Men poytaxt imizning Uch tepa tumanidagi 197-maktabda o'qiman. Darsdan bosh vaqtlarimda ingliz tili va to'quvchilik to'garaklariga qatnashaman. Birinchi to'qigan ishim galpoqcha bo'lib, uni singlimga birinchi qor yog'ishi munosabati bilan tuhfa qildim. Keyingi ishim esa gulli bezaklar tushirilgan ko'yakcha bo'lib, uni kichik singlim Maryanga sovg'a qildim. Singlimning ko'zlaridagi quvonch oila a'zolarimizni quvontirib yubordi.

Shu kunlarda respublikamiz Konstitutsiyasi kuniga atab Davlatimiz bayrog'i to'qiyapman. Bayroqchani to'qishda bor mahoratimni ishga solaman va uni maktabimiga sovg'a qilaman.

Shahribonu JAHONGIROVA,
Uchtepa tumanidagi
197-maktabning
5-«B» sinf o'quvchisi



31-modda: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi»dan

Bolajonlar, polvonkelbat san'atkor, tanigli so'z ustasi Shukrullo Isroillov qaysi məktabda o'qiganligi siz uchun qiziq bo'lsa kerak? Bu Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 96-məktab bo'lib, xonanda Izzat Jbrohimov ham mazkur ilm dargohini namunali xulq bilan tugatgan ekan. Bu maskanda bugungi kunda 250 nafar o'quvchi tahsil oladi. Məktabda ko'plab tadbirdar, tanlov va musobaqalar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Mazkur ilm maskanida yaqinda «Diniy ekstremizm va terrorchilikning - yoshlardan kelajagiga tahdidi» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda so'z olganlar, bugungi kunda turli davlatlarda bo'layotgan qo'poruvchilik xurujlari, ekstremistlarning aynan yoshlarga o'tkazayotgan ta'siri, ularning aldanib qolmasliklari uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida qizg'in suhabat bo'lib o'tdi. Məktab direktori Nargiza opa Ziyayeva o'quvchilarning darsdan bo'sha vaqtinini mazmuni o'tkazishlari uchun ularni to'garaklarga, sport seksiylariga jaib etish maqsadga muvofiq bo'lishini ta'kidladilar.



Abbos YUNUSXO'JAYEV, 8-sinf o'quvchisi:

- Men sportning kikkoksing turi bilan shug'ullanaman. Bu yil tumänlararo bo'lib o'tgan musobaqada oltin medal bilan taqdirlardim. Bu yutuq bilan cheklanib qolmayman, albatta Tadbirga kelsak, agar qalbimizda yurtimizga muhabbat, o'zimizga qat'iy ishonch bo'lsa, hech qanday kuch bizni o'z izmiga sola olmaydi.

Bu e'tiqodli, intiluvchan o'g'il-qizlarning kelgusida yurt koriga yaraydigan barkamol avlod bo'lib ulg'ayishlariga ishonamiz.



CHIPORVOYNING SARGUZASHTLARI

Qishlog'imiz baland qir-adirlar bag'rida joylashgani bois tulkilar yemish izlab, ahyon-ahyonda qishloq oralab turishadi. Biz ham o'rdak va tovuq boqamiz. Bu yil uchta ona tovug'imiz jo'ja ochdi. Jo'jalar bir-biridan chiroyli, do'mboqqina.

Uch-to'rt oy deganda ular kattagina bo'lib qolishdi. Ayniqsa, ularning orasida bitta chipor jo'ja ochko'zligi, chaqqonligi bilan ajralib turadi. Biroz beparvo qolsak, dasturxonadagi non ushoqlarini olib ochishdan ham toymaydi. Har kuni nonushta mahali eshik oldida poylab turadi.

Bir kuni ertalab hovlida Chiporvoy ko'rinnadi. Tushlik mahali don sepganimda ham boshqa jo'jalar kabi yugurib kelmadи. Uni izlamagan joyim qolmadи. Qo'nishnildan ham so'radim. Hech kim ko'rmabdi. Chipor tovuqchani tulki olib ketganiga shubham yo'q edi.

Kechki payt qo'zilar yem yeydigan, doim to'ncarilib turadigan tog'oracha «taq-tuq» qilib goldi. Hayron bo'ldim, keyin sekin borib tog'orani ko'tardim. Men kun bo'yil xastargan chipor jo'ja tog'ora tagidan chiqib, chopqillaganacha o'zini jo'jalar orasiga urdi. Yem qoldiqlarini cho'qilab turganda to'ncarilmay qolgan tog'ora ochko'z Chiporning ustiga to'ncarilib qolgan va u kun bo'yil o'sha yerda qolib ketgan ekan. Shunga aytalsalar kerak-da, «Ozga qanoat qilmagan, ko'pdan quruq qoladi», deb...



Sayyora MIRZAYOROVA,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi
49-məktab o'qituvchisi

TADBIRDAN SO'NG...

Biz tadbir ishtirokchilaridan ayrimlarini suhabatga tortdik:

- Bugungi tadbirdan katta taassurot oldim, - dedi 8-sinf o'quvchisi Risolat NOSIRXO'JAYEVA. -Məktabimizda turli to'garaklar ochilgan. Men ham til o'rganishga qiziqaman. O'tgan yili chet tillaridan bo'lib o'tgan fan olimpiadasida 2-o'rinni egalladim. Bu yil o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, birinchi o'rinni olishga, məktabimizning, qolaversa, oyijonimning mehnatlarini oglashga harakat qilaman.

Jahongir SHAROFIDDINOV, 9-sinf o'quvchisi:

- Men boks bo'yicha Rossiya bo'lib o'tgan davlatlararo championatda qatnashib, yurtimizga oltin medal bilan qaytdim. Bir so'z bilan aytganda, turli diniy oqimlar xurujiga o'layman.

- Men «Bolalar ijodiyoti» saroyidagi rassomchilik va dizayn to'garagiga qatnashaman. O'tgan yili «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida adabiyot yo'nalishi bo'yicha 4-o'rinni egalladim. Turli zararli oqimlarga qarshi biz yaxshi xulq va a'lo baholarimiz bilan javob berishimiz kerak, - dedi 9-sinf o'quvchisi Laziza TO'LAGANOVA.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhabatlashdi

BOBOM – FAXRIM

Mening katta bobom Qayum Ramazon 18 yoshlarida Abdurauf Fitratdeq ulug' alloma bilan birlgilikda «Ona tili» darsligini yaratganlar. Markaziy Osiyodagi ilk universitet tashkilotchilaridan biri bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovlar bilan bir qatorda dorilfununning birinchi pedagoglaridan bo'lganlari hamisha qalbimda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Bobokalonim «O'ktam», «Turg'un-boy», «Tomoshachi» taxalluslari bilan teatr san'ati, maorif sohasida ko'plab maqolalar chop ettirganlar. Mohir tarjimon sifatidagi mehnatlari ham ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan.

Bobom ayni ijod pallasni, 38 yoshlarida qatag'on qurbanbi bo'lganlar. Bu esa murg'ak ko'nglimni o'ksitib kelardi. Nihoyat bobom haqida izlanishlar olib borishga ahd qildim. Ra'no Sayfullayeva, Tolibjon Enazarov, Muhabbat Qurbonova, Ulug'bek Dolimov, Nodiraxon Alavutdinova, Dilfuza Rahmatullayeva kabi ijodkorlar bilan muloqotda bo'lib ma'lumotlar to'pladim. Izlanishlarim samarasini sifatida «Qayum Ramazonning ilmiy merosi» nomli mo'jazgina kitobcha dunyoga keldi. Bobom kabi yurtning asl farzandi bo'lish menin yagona orzuim.



Dilbar RAMAZON,
Toshkent Islom universiteti
qoshidagi akademik litsey o'quvchisi



(Boshi 1-betda)

Buxoroliklarning mehmono'sligi, samimiyligini aytmaysizmi, suhabatlariga to'ymaysan kishi! Maktabga oshiqayotgan o'g'il-qizlar qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, salomni kanda qilmay o'tishadi. Shunday aqli, odobli bolajonlarning ta'lum-tarbiysi bilan, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan qiziqdik. Bu boradagi savollarimizga javob olish maqsadida viloyat Xalq ta'lumi boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari Rajabzoda HALJUNI suhabatga chorladik:



KO'HNA VA NAVQIRON BUXORO!

- Bundan bir-ikki yil avval viloyatingizda bo'lgan kishi Buxoroning bugungi qiyosasidan hayratga tushishi tayin. Ayniqla, kelajagimiz egalari uchun bunyod etilgan inshootlar ko'zni quvontiradi.

- Darhaqiqat, viloyatimizdagi bugungi o'zgarishlar havas qilsa arziguek. 534 ta umumtalim maktebalar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularda 253 mingdan ziyod o'g'il-

Ulardan 90 tonna go'sht, 800 litr sut hamda 173 ming 500 dona tuxum olindi. Shuningdek, 441 tonnayu, 900 kg meva, 304,2 tonna kartoshka, 62,0 tonna piyoz, 37 tonna-yu, 730 kg poliz, 28 tonna-yu 540 kg sabzavot mahsulotlari, 133,0 tonna donli ekinlar yetishtirildi. 353 mln 900 ming so'mlik xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish hisobidan byudjetdan tashqari mablag'lar topishga erishildi.

yoshlarni, ayniqsa, qizlarni ommaviy sportga jalb qilish yuzasidan viloyatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyatimiz o'quvchilarining 97153 nafari (23,3 foizi) sport bilan muntaзам shug'ullanib kelmoqdalar. Shulardan 38530 nafarini qizlar tashkil etadi.

Viloyat Xalq ta'lumi boshqarmasi tasarrufidagi bolalar va o'smirlar sport maktebalarini soni 2003-yilda 34 tani



Bugungi kunda 70 ta ta'lum muassasasida 1000 dan ziyod quyon parvarishlanmoqda.

- Fan, ta'lum, sport, san'at, qo'ying-chi, barcha sohalarda muvaffaqiyatlarga erishayotgan yoshlar har bir viloyatning faxri, iftixori sanaladi, shunday emasmi?

- Albatta, bizning ham bu borada qo'lgakiritayotgan yutuqlarimiz talaygina. Viloyatdagi iqtidorli va ijodkor o'quvchilarni aniqlash va ularni rag'batlantirish maqsadida o'quvchilar o'ttasida turli ko'rik-tanlovlardan tashkil etib kelinmoqda. III bosqich fan olimpiadalarida viloyat bo'yicha umumta'lum muassasalaridan jami 550 nafar 9-sinf o'quvchilari ishtirok etdilar. Yurtimiz Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab umumta'lum muassasalarining 8-, 9-sinf o'quvchilari o'ttasida o'tkazilgan «Vatanimiz tarixini o'rganamiz» mavzusidagi insholar tanlovida Buxoro shahridagi 9-maktabning 8-sinf o'quvchisi Gulshan Aliyeva va Qorovulbozor tumanidagi 8-IDUMIning 9-sinf o'quvchisi Chevar Rasulova g'olib bo'ldi va boshqarmaning faxriy yorlig'i hamda qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

- Viloyatda bolalar sportini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida ham to'xtalsangiz.

- Umumta'lum maktebalarida jismoniylar tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchi-

tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 38 taga yetgan. Shulardan 3 tasi Olimpiya zaxiralari sport maktebalarini hisoblanadi. Bundan tashqari viloyatda Olimpiya sport turlarini rivojlantirish maqsadida 8 ta maxsus sport makkab internatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 210 ta badiiy gimnastika to'garaklari tashkil etildi va zarur sport jihozlari bilan ta'minlandi. Bugungi kunda sportning bu turi bilan 4119 nafar qizlar shug'ullanib kelmoqdalar.

2010-yilda viloyatning iqtidorli sportchilaridan Husniyabou G'ulomova Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo championatida oltin medali qo'lgakiritgan bo'lsa, Vengriya davlatida bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada faxriy 2-o'rinni egalladi va shu yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasiga aylandi. Yana bir sportchi qizimiz Sarvin Xoliquova Osiyo championatinining kumush va oltin medali sohibasi bo'ldi...

- Ustoz, bu ro'yxatni hali ancha davom ettirishingiz mumkinligiga shubhamiz yo'q.

Kelajagimiz egalari bo'lmish farzandlarimizni bilmli, ma'naviyatli qilib tarbiyalashdek xayrlı ishlaringizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.

qiz ta'lum-tarbiya olmoqda. Shulardan 2535 o'rinni 8 ta umumta'lum maktebalar kapital rekonstruksiya qilindi. 5941 o'rinni 11 ta umumta'lum maktebalar kapital ta'mirlandi. Shuningdek, Buxoro shahrida 200 o'rinni, G'ijduvon tumanida 150 o'rinni yangi misuqa va san'at maktebalarini qurildi. Bolalar sporti obyektlari ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Jondor tumanidagi 20-son, Kogon tumanidagi 13-son, Qorako'l tumanidagi 5-son sport makkab-internatlari, Peshko't tumanidagi 9-son, Olot tumanidagi 10-son, Romitan tumanidagi 27-son maktebalarida jami 6 ta sport zallari qurilib, foydalishiga topshirildi.

- Xizmat yuzasidan ko'plab viloyatlarda, shahar va tumanlarda bo'lamiz. «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» munosabati bilan joylardagi ta'lum maskanlarida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar bilan tanishib, farzandlarimiz ta'lum-tarbiya olibgina qolmay, tadbirkorlik saboqlarini ham o'zlashtirib borayotganlaridan quvonamiz. Zero, davr talabi ham shunday, nima dedingiz?!

- O'tgan davrda ta'lum muassasalarini pedagogik jamaolari tomonidan mazkur yo'nalishda qator amaliy ishlar bajarib kelinmoqda. Chunonchi, 328 bosh qoramol va 9520 ta parranda boqilmoqda.

NAVOIY BOBOM

O'zbeginning faxridir,
Azal Navoiy bobom.
Yozdi tilni ulug'lab,
G'azal Navoiy bobom.

Ilm-u urfon bobida,
Yaratdi u zo'r maktab.
Ijodiy merosini,
O'qimiz dildan asrab.

Besh dostondan iborat,
«Xamsa» yaratgan bobom.
Qalam bilan dunyoga,
Dovrug' taratgan bobom.

Yuraklardan bir umr,
Joy olgansiz bobojon.
Hur elimni ruhingiz,
Qo'llab turadi har on.

Oyshajon RO'ZMETOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
5-maktabning 8-sinf o'quvchisi



TANTANALAR YARASHAR

Yurtimiz tinch va obod,
Xalqimiz hur va ozod,
Shunday ajib makonda,
Tantanadir har onda.

Osmon tiniq, musaffo,
Yurtga yarashar tinchlik.
Tanti odamlarida,
Mehr, oqibat kuchli.

Biz zukko o'g'il-qizlar,
Shu yurtingin farzandimiz.
Har ishda kamarbasta,
O'zbegin dilbandimiz.

Maf'tuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi
34-umumta'l'm maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi



IJOD ZAVQI

TUMORIM VATAN!

O'zing istixorim, vijdonim orim,
Dunyoda yagonam, xumorim, Vatan!
Bag'ringda o'ynadim, quvondim, kuldim,
Mening ko'z qarog'im, tumorim Vatan!

Marjona AMINOVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi
75-umumta'l'm maktabining 4-sinf o'quvchisi

BARKAMOL AVLODMIZ

Biz barkamol avlodmiz,
Vatanimiz ertasi.
Xalqning erka farzandi,
Kelajakning egasi.

Ota-onan mehridan,
Bahramand shodmiz.
Yurt koriga shay turgan,
Barkamol avlodmiz.



Nurjamol NORQULOVA,
Toshkentdag'i 6-ixtisoslashtirilgan maktabning
6-sinf o'quvchisi

qvulamachoq o'ynamayman! Men
ketdim, xayr!

Peppi siltandi. Mirshab esa, uning
bilagini qattiqroq siqdi.

— Hech qayoqqa bormaysan. Men
ilan yurasan.

Endi Peppining g'ashi keldi. U ikkala
mirshabni yelkasidan changalladi-yu
sudragancha ko'chaga chiqarib tashladi.
Mirshablar bu oriqqina qizdan tortgan
jabrlarini o'ylagunlaricha Peppi uyg'a
kirdi. Ikkita kulcha olib qaytib chiqdi.

— Manglar, yo'lدا yeb ketinlar.
Qorinlarining ham ochgandir. Osh bo'lsin!

Mirshablar yolg'iz polvon qiz
yashaydigan qarosiz hovliga olayib ko'z
tashlashdi-yu, ustlarini qoqib jo'nab
qolishdi.

Yarim soatlar ichida bo'lib o'tgan bu
tomoshani Tommi bilan Annika hayron
va zavq bilan kuzatib o'tirishdi. Sovib
qolgan qaymoq qo'shilgan qahvalariga
ham e'tibor berishmadidi. Peppi esa, otini
egarlab, hovliga olib chiqar ekan, o'zicha
ming'illadi:

— Lissabon... bolalar uyi ... karra
jadvali emish. Hammasi, o'zingga
buyursin, janob mirshabjon! Biz ot minib
mazza qilamiz endi. Qani, Annika, Tommi,
ot sayriga marhamat!

Ular yayrab-yayrab ot minib o'ynamadir.
Xo'sh, mirshablar-chi, deysizmi? Ular
kulcha chaynab idoralariga kelishadi. Lekin
kichkina bir qizga kuchlari yetmaganini
aytishmadidi. «Mayli, bolalar uyiga borishni
istamasa, bormasin, o'zi xohlagancha
yashayversin, birovgaga ziyoni tegmasa
bo'ldi-da», deb hisob berishdi.

Shu-shu, Peppining hovlisiga qaytib
mirshablar qadam bosishmadidi.

(Davomi bor)

Sa'dulla SIYOYEV tarjimasi

PEPPI UZUNPAYPOQ

Astrid LINDGREN, shved yozuvchisi

3. Kutilmagan mehmonlar

— O'ylasam yetib qolar, — dedi Peppi,
— xo'sh, Portugaliya... Bu yurtda otam
bilan ko'p marta bo'lganman. Uning
poxtayti... Lissabon! Bilib qo'yinglar!

Endi birinchi mirshabning jahli
chiqdi.

— Huv, menga qara, qizgina! Sen
bilan afsona aytishib o'tirgani vaqtimiz
yo'q. Bizlarga seni olib kelinglar, degan.
Olib ketamiz!

Mirshab Peppining bilagidan
ushladi.

— Qani, yuraqol.

Shu payt Peppi yulqinib mirshabning
qo'lidan chiqdi-da, tomga qarab
yugurdi. Yo'l-yo'lakay narvonni sudray
ketdi. Uni devorga tirab qo'yib, lipillab
tom boshiga chiqib oldi. Mirshablar
angraygancha qolaverdilar. Peppi
tomdan turib qichqirdi:

— Janoblar! Bu yoqqa chiqinglar! Bu
yer juda bahavo ekan!

Mirshablarning iloji qolmadi. Ular
istab-istamay narvondan o'rnalab tom
boshiga chiqdilar. Shu payt Peppi
maymundek bir irg'ishlab, mo'rkonga
o'tib oldi va qo'lini cho'zib hayqirdi:

— Qani, hey, yonimga keling,
yonimga!

Mirshablar asta-asta yurib,
mo'rkonga yaqinlashdilar. Peppi esa,

sharaqlab kulgancha mo'rkondan
sakrab tushdi va tom chetiga bordi-yu...
baland daraxtning shoxiga osilib oldi.
Keyin daraxt tanasiga yopishib,
mushukday yerga sirg'alib tushdi: Ikkii
mirshab izlariga qaytdilar. Ular endi
pastga tushmoqchi bo'lganlarida Peppi
shartta narvonni olib, huv nariga otib
yubordi. Yana xoxolab kuldii.

— Ho'v, jinnilik qilma, shayton qiz,
— dedi birinchi mirshab, — yerga tushsak
ta'ziringni beraman.

— Unaqa bo'lsa, narvonni
qo'yamayman! — qaysarlik qildi Peppi,
— ta'ziringizni yeb bo'lmasa, kiyib
bo'lmasa! Tuzukroq bir nima va'da
qiling, narvonni tirab qo'yay!

Ikkinci mirshab muloyimroq gapirdi:

— Jon qizim, hazillashma.
Biz otang tengimiz-a? Ishga
kech qolyapmiz, yerga
tushaylik endi.

— Bu bosha gap, — dedi Peppi, — yaxshi
gapga ilon inidan chiqar emish. Men ilon
emasman, onasidan ayrligani, otasini
kutayotgan bechoragina bir qizman.

U darrov narvonni joyiga
qo'ydi. Ikkala mirshab pishillab
yerga tushishdi. Peppi, biz
yarashdik, endi menga
tegmas, deb o'ylagan edi.



BIZGA MASHINA SOVG'A QILISHDI...



100 yil o'libdi. Shu munosabat bilan mazkur kompaniya dunyoning turli mamlakatlarda tashkil etilgan «SOS – bolalar mahallalari»ga o'zining 100 ta avtomobilini taqdim etayotgan ekan.

Bu tuhfa bizga ham yetib keldi. Mahalla bolalarining qiziqishlarini bir ko'rsangiz edi... Biri ruliga o'tirgan, yana biri jihoz, qulayliklari bilan qiziqqan, boshqasi esa mutaxassislarni tezligiga oid savolga tutgan...

Bu yil kollej talabasi bo'lgan Mirzohid akamda haydovchilikka o'qish istagi paydo bo'ldi. Ugam Marat esa avtomobil muhandisi bo'lishni o'ylab yuribdi...

Biz mahalla bolalarining hukumatimiz, turli tashkilotlar, kompaniyalarining homiyliklaridan ko'nglimiz o'sadi. Xalqimiz mehri, e'tibori bilan ulg'ayib, yurtga foydali inson bo'lishga harakat qilamiz.

*Oksana Frolova,
filologiya fanlariga
ixtisoslashgan davlat
umumta'l'm maktabining
5-«D» sinfi o'quvchisi*

2007-yilda Favqulodda vaziyatlar va Xalq ta'limi vazirliklari hamda Respublika Ta'lim markazi tomonidan 5 – 9-sinf o'quvchilar uchun «Hayot xavfsizligi asoslari» kursining fanlar tarkibida integratsiyalangan o'quv dasturi taqdim etilgan edi. Poytaxtimizdagi 241-maktabda birinchilardan bo'lib bu borada amaliy ishga kirishildi. Maktab qoshida tajribali ustozlardan ishchi guruhi tuzildi. O'z ishining bilmadoni, milliy g'oya va ma'naviyat fani o'qituvchisi Nigora Muratova tajriba sinov maydonchasi rahbari etib tayinlandi. Nigora opa 5-sinf o'quvchilariga favqulodda holatlarda qanday harakatlanish yuzasidan saboq berishda soha mutaxassislari, ayniqsa, Fuqaro muhofazasi instituti xodimlari bilan hamkorlikni yo'nga qo'ydi.

Hayot qadri



XAVFSIZLIK SABOQLARI

Yaqinda Fuqaro muhofazasi institutida 241-maktab o'quvchilari ishtirokida Ta'lim tizimida Hayot xavfsizligi asoslarining o'mi o'quv-amalii seminari bo'lib o'tdi. Seminar institutting yetakchi mutaxassislari favqulodda holatlarda qanday harakatlanishga oid tavsiyalar berdilar. O'z navbatida maktabning 9-sinf o'quvchilariga besh yil mobaynida hayot xavfsizligiga doir olgan saboqlarini amalda namoyish etdilar. Mutaxassislar bilan ochiq muloqot chog'iда o'quvchilar bu borada puxta bilinga ega ekanliklari yaqqol ko'rindi. Mashg'ulotlar maydonida Shahnoza Mirhosilova,

Javohir G'ofurov, Mahbuba Pirmuhammedova va Jasur Xudoyberganov kabi o'quvchilar yong'in ro'y berganda va boshqa texnogen holatlarda qanday harakatlanishni amalda ko'rsatib, bu borada yutuqlarga erishganlarini namoyish etdilar. Quvonarlisi, tadbir ishtirokchilarining ko'pchiligi kelajakda mard va jasur insonlar kasbi bo'lmish qutqaruvchilik kasbini tanlabdilar. Yoshlarimizning o'zgalar koriga yarashni niyat qilayotgani biz kattalar qalbini iftixorga to'ldirdi.

*Yusuf ABDULLAYEV
(suratlari muallifini)*



ONA QUVONCHI

O'g'lim tahsil olayotgan (nomini yozmadim) kasb-hunar kollejida o'qiydigan ayrim bolalar sigaret chekishar ekan. Ular o'g'lim Burhonni ham chekishga undab, o'rtaqa olishibdi. Unga ta'sir o'tkaza olmay, sha'nini yerga urishga harakat qilishibdi. «Burhon ota o'g'il emas, aya o'g'il», deyishibdi.

– Sen nima deding? – so'radim o'g'limdan.
– Ayajon, ularga gapirish befoyda, chunki onalari Sizga o'xshab yoshligidan nima savob-u, nima gunoh ekanligini, nima zarar-u, nima foyda ekanligini o'rgatmaganlar-da, deb kulib qo'ydi. Qalbin yorishib, gap-so'zlarim besamar ketmaganidan quvonib ketdim...

*Salima XOLDOROVA,
Navoiy konmetallurgiya kombinati
5-kon boshqarmasi ma'naviyat targ'ibotchisi*

HAFIZA SHOHSUPADA!

Yaqinda Toshkent shahrida O'zbekiston an'anaviy karate federatsiyasining navbatdagi turniri ham muvaffaqiyatlari yakunlandi. Xalq ta'limi vazirligi, Bolalar sportni rivojlantirish jamg'armasi, uning Chilonzor tuman filiali va Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internati hamkorligida o'tkazilgan turnirda navoiylik, samarqandlik va poytaxtlik karatechi qizlar ishtirot etdilar.

– 16 nafar shogirdlarim bilan musobaqada qatnashdik, – deydi Navoiy



viloyati jamoasi murabbiyi Tolib aka Toirov.

– Shogirdlarimdan 8 nafari shohsupaga ko'tarildi. Viloyatimizda qurib bitkazilgan va qad rostlayotgan sport inshootlari ana shunday yutuqlarimizga zamin yaratmoqda.

– Karatechi qizlar orasida shohsupanining faxli o'mini egallaganimidan xursandman.

Muvaffaqiyatlarim negizida murabbiyim Shuhrat aka Qo'shamurodovning xizmatlari beqiyos, – deydi Toshkent shahri vakilasi Hafiza Xushvaqtova.

Madina

MIRZAQOBULOVA



«ANTIQA» KEKSI

Kerakli mahsulotlar: 1 st qatiq, 1 st sut, 1 st shakar, 2 st un, 4 ta tuxum, tuz, vanilin, 2 dona banan, 1 piyola malina va 250 gr margarin.

Tayyorlanishi: qatiq, sut, tuxum, tuz, vanilin, shakar, eritilgan margarin, bir idishda yaxshilab aralashtiriladi va un qo'shiladi. Tayyor xamir maxsus keks qolipida past olovda 20-30 daqiqa davomida pishiriladi.

«O'ZBEGIM» SALATI

Kerakli mahsulotlar: 2 dona bodring, 1 dona qizil sabzi, 2 ta tuxum, 1 osh qoshiq jo'xori, 100 gr mol go'shti, 3 dona salat bargi, 2 osh qoshiq mayonez, tuz.

Tayyorlanishi: sabzi, tuxum, mol go'shti alohida pishiriladi. Mol go'shti to'rburchak shaklida, qolgan masalliqlar esa somoncha shaklida to'g'ralib, mayda to'g'ralgan salat bargi, mayonez bilan aralashtirilib, ta'ba ko'ra tuz sepib, dasturxonga tortiladi.

Pazanda qizga

NARGIZA tayyorladi

Kuz faslida yuz terisi
hamda qo'llaringiz
yorilib, dag'allashib
qolishi mumkin.
Shunday hollarda
1 qoshiq tvoroggaga
1 qoshiq yog'liq qatiq
yoki smetana qo'shib
yaxshilab
aralashtiring. So'ng
yuzingiza 15 daqiqa
surtib qo'ying va iliq
suvda yuvib tashlang.

Foydali maslahatlar

Qishga saqlash uchun ko'p miqdorda
olma xarid qildingizmi? Ularni yaxshi
saqlash uchun yog'och yashikka joylab,
ustidan qipiq sepib qo'ying.

Behi va turpning shamollahsha, yo'talda
foydasi katta. Kechqurun behi yoki turpning
ichini o'yib, asal solib qo'ying. So'ngra uni
duxovkada biroz ilitib, keyin iching, tezda
yo'taldan forig' bo'lasiz.

MANZURA to'pladi

LABIRINT

Quyonchaga
sabzi tomon
olib
boradigan
yo'lni
ko'rsating.

YAXSHI DAM – O'QISHGA HAMDAM

Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 26-
umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi Gulyuz
Hamroqulova onasining eng yaqin ko'makchisi.

Maktabdagagi o'qishlari a'lo, bo'sh vaqtida kitob
o'qishni yoqtiradi. Ayniqsa, rasm chizish jon-u dili.

Quyida e'tiboringizga Gulyuz chizib yuborgan ertak
qahramonlarining rasmini havola qilyapmiz.

U kelgusida mohir musavvir bo'lmogchi.
Keling, jippi rassom qizimizga biz ham omad tilaylik!

**XANDALAR**

O'qituuchi o'quvchidan
so'radi:



- Oqiljon, Yevropada
kam uchraydigan
uchta harfdan iborat
hayron nima?

- Sher.

- Sher Afrikada yashashini
bilmaysanmi?

- Shuning uchun ham Yevropada
kam uchraydi-da!

Ikki bolakay suhabidan:

- Kel, Botir, «Hayronot bog'i»
o'ynaymiz.

- Mayli, men kim bo'laman?

- Sen hayronot bog'iga kelgan
bola bo'lasan.

- Sen-chi?

- Men maymun
bo'laman.

Sen uyingdan
menga apelsin
olib kelasan.



Fayzulla ABDULLAYEV

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'qin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliiddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
Feruz
MATYOQUBOV
Navbatchi:
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rbinbosari),
Feruza ADILLOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chigadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 30680
Buyurtma N: J 3190